

## **PRESS-RELIZ**

### **“Mission Moon” kosmik ta’lim platformasining taqdimoti o‘tkazildi**

2026-yil 1-iyun kuni “O‘zbekkosmos” agentligi tomonidan “School 21” hamkorligida “Tashkent City Mall” zamonaviy ko‘ngilochar markazidagi “Sky Park” bolalar maydonchasida 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan “Mission Moon” kosmik ta’lim platformasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbir bolalar va o‘smirlarda kosmos, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarga qiziqishni oshirish, ularni ilm-fanga keng jalb etish hamda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish maqsadida tashkil qilindi.

“Mission Moon” bolalar va yoshlar uchun mo‘ljallangan zamonaviy kosmik ta’lim platformasi bo‘lib, u ishtirokchilarga kosmik texnologiyalar, sun‘iy yo‘ldoshlar, Oy missiyalari, robototexnika, astronomiya va muhandislik kabi sohalar haqida interaktiv va qiziqarli formatda bilim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Loyihaning asosiy maqsadi yosh avlodning kreativ va texnologik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda innovatsion g‘oyalarga qiziqish uyg‘otish hamda kelajakda milliy kosmik va muhandislik sohalar uchun malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari STEM ta’limiga strategik yo‘nalish sifatida qaramoqda. Zamonaviy iqtisodiyot va yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, “Mission Moon” platformasi O‘zbekistonda kosmik ta’lim ekotizimini shakllantirish, bolalarni erta yoshdan innovatsion muhitga jalb qilish va ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim tashabbuslardan biridir.

Tadbir davomida ishtirokchilar uchun platformaning imkoniyatlari, ta’lim yo‘nalishlari va interaktiv funkcionallari haqida maxsus taqdimotlar o‘tkazildi. Shu bilan birga, bolalar uchun yaratilgan kosmik simulyatsiyalar, ta’limiy o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar namoyish etildi.

Tadbirning amaliy qismi sifatida “Space Activity Zone” kosmik faollik hududi tashkil etildi. Unda tematik stendlar va interaktiv stollar joylashtirilib, hamkor tashkilotlar hamda agentlik mutaxassislari tomonidan tayyorlangan amaliy materiallar, applikatsiyalar, mini-vorkshoplar va kreativ mashg‘ulotlar taqdim

qilindi. Mazkur hudud bolalarga kosmos va texnologiyalarni ham nazariy, ham amaliy tarzda o‘rganish imkonini berdi.

Shu bilan birga, tadbir doirasida “Mission Moon Space Challenge” maxsus interaktiv dasturi ham tashkil etildi. Ishtirokchilar kosmosga oid turli viktorinalar, mini-missiyalar, mantiqiy topshiriqlar va jamoaviy bellashuvlarda qatnashdilar. Dastur bolalarning tezkor fikrlash, jamoada ishlash va muammolarga innovatsion yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Tadbir yakunida eng faol va bilimdon ishtirokchilar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

“O‘zbekkosmos” agentligi kelgusida ham bolalar va yoshlarni kosmos, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar sohasiga keng jalb qilish, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ta’lim loyihalarini amalga oshirishni davom ettiradi.

**“O‘zbekkosmos” agentligi Axborot xizmati**